

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
TURIZM VA SPORT VAZIRLIGI**

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA  
MUTAXASSISLARNI QAYTA TAYYORLASH  
VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**O‘ZBEK XALQ  
O‘YINLARINING  
QISQACHA MAZMUNI**

(Jismoniy tarbiya o‘qituvchilari uchun uslubiy tavsiyanoma)

**“UMID DESIGN”  
TOSHKENT – 2021**

UO'K 796 (575.1)

KBK 75.5 (5)

X 21

Xalmatova N.

O'zbek xalq o'yinlarining qisqacha mazmuni [Matn]: uslubiy tavsiyamon / N. Xalmatova .-Toshkent: Umid Design", 2021.-24 b.

**Tuzuvchi-muallif:** N.Xalmatova

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali "Jismoniy tarbiya metodikasi" kafedrasida o'qituvchisi

### **Taqrizchilar:**

**U.Dusanov.** Samarqand Davlat Universiteti "Jismoniy madaniyat va metodikasi" kafedrasida dotsenti

**A.Adbumannotov.** Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali "Pedagogika psixologiya" kafedrasida mudiri, dotsent.

**Ma'sul muharrir: B.N. Saidov** -p.f.n. dotsent

Ushbu uslubiy tavsiyada O'zbek xalq o'yinlarini paydo bo'lishi, rivojlanishi haqida, o'yinlar orqali bolalarni barkamol qilib tarbiyalash, buyuk mutafakkir allamalarning fikrlari haqida tushunchalar berilgan.

Uslubiy tavsiyada Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining ilmiy-metodik Kengashining 2019- yil 11-noyabr №9-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

## Kirish

Bolalarni har tomonlama rivojlantirishi, sogʻligʻini mustahkamlashi, mehnat va jangovor faoliyatga tayyorlashning vosita va omillaridan biri sifatida Oʻzbekistonning buyuk davlat boʻlishida keng koʻlamli xizmat qilayotganligini mamlakatimiz aholisining barcha qatlamlari, keng jamoatchilik vakillari chuqur anglab yetishdi. Oʻzbek xalqining A.Temur, Goʻr oʻgʻli, Alpomish, Tumaris, Shiroq, Mirzo Bobur, Jaloliddin Manguberdi kabi yirik dargʻalar va siymolar timsollarida oʻz maʼnaviy fazilatini, kuch-qudratini, orzu istagini, aql-zakovatini mujassamlashtirgan maʼnaviy meʼrosining ahamiyati ayniqsa bola tarbiyasida bugungi kunda juda muhimdir. Milliy zaminda yaratilgan bu qahramonlar, bolalar ongi, qalbiga chuqur kirib borib, ularga ruhiy jihatdan taʼsir koʻrsatadi. Yosh avlod bu qahramonlarga oʻxshashlikka, ulardan namuna olishlikka, ular qilgan qahramonliklarni takrorlashga harakat qiladilar. Sir emaski har bir bola har bir ijtimoiy guruh yoki toifa, har bir elat, millat va mintaqa xalqlari oʻz tabiati bilan yaratilgan. Demak, har birining oʻziga xos maʼnaviy olami mavjud. Bu maʼnaviy olam kezi kelganda bolani maʼlum maʼnoda komillikka yetaklovchi omil sifatida xizmat qilishi va maʼnaviy-ruhiy qiyofa tarzida namoyon boʻlishi muqarrardir. Ular doimo zamon va makonda oʻzgarib, kamolot sari yuksalib boraveradi. Buni biz bugungi kunda mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga aylanib borayotgan bolalar sportini rivojlantirishga qaratilgan sayi-harakatlar misolida koʻrishimiz mumkin. Milliy maʼnaviy-ruhiy qiyofa, bugungi kunda oʻzbek millatining atrofdagi voqelikni, hodisalarni oʻziga xos ravishda idrok, tafakkur, tasavvur qilishi, ularga boʻlgan munosabatlarining urf-odat, anʼanalar, karakter tarzida namoyon boʻlishining oʻzgacha usuli va yondoshish tarzining mavjud ekanligi bilan ifodalash ayniqsa oʻrinlidir. Bu esa, har bir millatning oʻziga xosligi, birining ikkinchisiga oʻxshamaydigan xususiyatlarga ega ekanligi, oʻzgalarning maʼnaviy-ruhiy holatini aynan qabul qila olmasligi bilan bogʻliq ekanligining dalilidir. Oʻzbek xalq oʻyinlarining paydo boʻlishi va taraqqiyotini oʻrganishda sharqning buyuk mutafakkirlari Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshgʻariy, Kaykovus, Umar Xayyom, Amir Temur, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Zayniddin Mahmud Vosifiy va boshqa tabarruk zotlar qoldirgan maʼnaviy merosni tadqiq qilish hamda amaliyotga tatbiq etish oʻz yechimini kutayotgan dolzarb muammolardan biridir.

## **O‘zbek o‘yinlarimizning tiklanishi-milliy qadriyatimizning tiklanishi.**

Bir millatning ma'naviy-ruhiy salohiyati shakl va mazmun jihatidan ikkinchisida takrorlanmasligi, ularning ilg'or qirralari orqali umumbashariylikka daxldor bo'lgan ma'naviy borliqni vujudga keltirishi bilan izohlanadi. Demak, bugungi kunda olib borilayotgan ijtimoiy - siyosiy harakatlar zahirida davlatimizning dunyo hamjamiyatidagi o'rnining ortishi va to'g'ri targ'ibot qilinayotgan siyosatning ustuvorligi mamlakatimizda ma'naviy ruhiy yetilish davrining takomillashib borayotgani va izchillik bilan amalga oshirilayotganining aks sadosidir. Bu esa o'z o'rnida ma'naviy qiyofa deb ataladi. O'z ma'naviy qiyofasini yo'qotgan millat esa yo'qolgan millat hisoblanadi. Ma'naviyatning takomili esa, o'sha millatga mansub har bir bolaning ma'naviy kamoloti bilan bevosita bog'liq va ushbu zaminga tayanib yuksaladi. Har bir xalq mohiyatan umuminsoniy bo'lgan qadriyatlarni tamomila o'ziga xos shaklu-shamoyilda ifoda etishining siri ham shunda.

Yuqoridagi fikrlarimiz davomi sifatida shuni aytish joizki, bugungi kunda yoshlarimizda milliy ong, milliy mafkura, o'ziga xos milliy g'urur, milliy tafakkur va iftixorni tarbiyalash borasida respublikamizda juda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Bizning bugungi kunda oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli uchun amalga oshirilayotgan islohotlarimizga, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli, mustaqil fikrlovchi irodali mutaxassis kadrlar tayyorlash muammolarini bartaraf etishga qaratilgan ishlarimizga yanada rag'bat berdi desak aslo mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Yuqorida ta'kidlangan fikr va mulohazalarimiz nihoyasida, xulosa tariqasida shuni alohida ta'kidlash joizki, bugungi kun bolalarimizning milliy istiqbol ruhida barkamol avlod bo'lib shakillanishida va sportning yuqori arenalarida yuqori natijalarni egallab, O'zbekiston bayrog'ini baland ko'tarishga erishishlari uchun, birinchi galda; xalqimiz o'tmishi, shuningdek, jismoniy madaniyat va sportimiz tarixi, bolalarimizda falsafiy-psixologik tafakkur, madaniy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy harakatlar va g'oyalarga boy ekanligini tushuntirishga. erishish;

- Bolalar ongiga o'tmishdagi jasur, yovqur, jahongir ota-bobolarimiz ruhini singdirish hamda ularda moddiy va ma'naviy madaniyatga bo'lgan

mehr, hurmat va qadr-qimmat kabi sof insoniy tuyg‘ularni rivojlantirishga erishish;

-O‘zbek xalq o‘yinlarining paydo bo‘lish tarixi va taraqqiyotini tadqiq qilishda shu kungacha saqlanib kelgan qadimiy me‘morchilik (yunon, rim, arab, fors mualliflarining qo‘lyozmalari, turkiy bitiklar) obidalari va amalga oshirilgan arxeologik qazishmalar, shuningdek, xalq og‘zaki ijodi (epos, doston, rivoyat, afsona, topishmoq, o‘yin, raqs, musiqa va boshq.) namunalarning natijalarini kontent - tahlilga jalb etish g‘oyat muhimdir.

Psixolog D.B.Elkonin o‘z ilmiy-psixologik asarlarida bolalar o‘yinlarining kelib chiqishini psixologik jihatdan o‘rganib, - “ibtidoiy kishilar ov, urush voqealarini va boshqa jiddiy faoliyat turlarini o‘yinlarda ifodalaganlar. Ovdagi muvaffaqiyatsizlikni o‘ynash-ular yo‘l qo‘ygan holatlarni hamda muvaffaqiyatsizlikning sabablarini aniqlashda yordam bergan”, - deb xulosa chiqaradi.

Elementar tarbiyaning bosh masalasi bolani jismoniy jihatdan tarbiyalashdir. Shveysariyalik mashhur pedagog I.P.Pestalotsining aytishicha: “Hayot yetilgan jismoniy nihollarning uyg‘onishidan boshqa narsa emas, bu nihollar endi o‘zining butun kuchi bilan, o‘zining hamma novdalari bilan o‘shisga va kamolotga yetishga intiladi hamda insonga aylanishi lozim bo‘lgan jonivorning uyg‘onishidan boshqa narsa emas. Shuning uchun bolaning kundalik jismoniy kuchlarini mashq qildirish va rivojlantirish muhimdir”.



## O‘zbek xalq o‘yinlari haqida allamalarning fikrlari

O‘zbek xalq o‘yinlari tarixida birinchi marta milliy o‘yin namunalari bayon etilishi, ularning ta’rifi - tasviri qomusiy allomalardan biri Mahmud Qoshg‘ariy qalamiga mansubdir. U bundan 1000 yil burun 6 yil mobaynida Turkistondan Termizgacha, Xazar va Orol sohillaridan Tang‘irot etaklaricha bo‘lgan hududda yashagan turkman, o‘g‘iz, chigil, yag‘mo, qirg‘iz va boshqa-boshqa turkiyzabon xalqlarning tarixi, milliy psixologiyasi, o‘lkalar jo‘g‘rofiyasi, urug‘, qabila, elatlarining til xususiyatlari, yozma va og‘zaki adabiyoti, ko‘chmanchi tuyakashlar, yilqichilar, cho‘ponlar, o‘troq dehqonlar, bog‘bon va kosiblarning tirikchilik usullari, so‘z talaffuzlari va turli so‘z atamalarini teran o‘rganib, “Devon-u lug‘atit turk”, ya’ni “Turkiy so‘zlar devoni”ni tuzib chiqdi.

Mahmud Qoshg‘ariyning ushbu devonida 150 ga yaqin xalq o‘yinlari tilga olinib, shulardan 20 taga yaqin o‘yin turiga batafsil ta’rif berilgan. Olim kattalar va bolalarning yosh jihatlariga nisbatan mos bo‘lgan o‘yin turlariga alohida to‘xtalib va musobaqa turlarini bayon qiladi. U o‘yinlarni diqqat bilan o‘rganib, ham jismoniy, ham aqliy mashg‘ulotlarga ajratgan. Shundan bilsa bo‘ladiki, hozirgi zamonaviy sport o‘yinlarining deyarli juda ko‘pchiligi o‘sha davrlardayoq, ya’ni XI asrda ham mavjud bo‘lgan ekan.

Ma’lumki, chavgon O‘rta Osiyo xalqlarining juda qadimgi hamda sevimli ot sporti o‘yinlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, chavgon o‘yini el-yurt mudofaasi uchun zaruriy jismoniy mashqlardan biri bo‘lganligi uchun ham, o‘yin g‘olibiga beriladigan sovrinlarning darajasiga alohida to‘xtalib o‘tadi. Shuningdek, devonda o‘sha davrda otda poyga chopish, quvlanish, tez yo‘rtib turish, toqqa chiqish, pastlikka tushish kabi “Bahs”lar bayoni ham keltirilgan.

Suvda o‘tkaziladigan musobaqalar ham alohida diqqatga sazovordir. Suv mashqlaridan biri bo‘lgan *g‘avvoslik* juda qadimiy kasblardan biri bo‘lib, devonda suv bahslarining ikki turi uchraydi. Birinchisi, suvda cho‘milish, sho‘ng‘ish, suvdan suzib o‘tish, suv kechish, suvda quvlashmoq, suvga biron narsani, masalan, suvda cho‘kmaydigan yog‘och, biror ashyoni tashlamoq; ikkinchisi - ermak, ko‘ngil ochish mashg‘ulotlari ma’nosidagi o‘yinlardir.

Bular: suv yoki sut simirmoq, suv ustida, yalpoq toshni kim o‘zarga otmoq, ya’ni bahslashmoq. Hozirgi paytda bolalar buni “qaymoq” o‘yini

deb o'ynashadi. O'yinda toshning suvda necha marta tegib sakrab "qaymoq" hosil qilishini e'tiborga olinadi va kim "qaymoq" hosil qilsa, o'sha g'olib sanaladi.

Devonda bolalar o'yinlarining turi ko'p uchraydi. Ularning ba'zilari yo'l-yo'lakay sanab o'tilgan bo'lsa, ba'zi bir o'yinlar tafsiloti bilan keltirilgan. Oshiq o'yini, to'p o'yini, cho'pon bolalar o'yinlari, chillak o'yinlari, qizlarning arg'imchoq o'yinlari ham birma-bir sanab o'tilgan.

O'sha davrdagi ko'pgina o'yinlar bolalarning hozirgi davrdagi o'yinlarini eslatadi. Masalan, "O'tish-o'tish" deb atalgan o'yin "Kesak kuydi", "Darra soldi", "Musht ketdi" o'yinlariga o'xshab ketadi. Amudaryo va Sirdaryo sohillarida, orol etaklarida, shuningdek, yaqin joylardagi soylar, anhorlar, hovuzlar va ko'llar bo'ylarida bolalarning "Mug'uz-mug'uz" nomli qadimiy o'yini o'ynalgan.

Sharq allomalarning harakatli o'yinlar haqidagi qarshlari Alisher Navoiy o'zining "Mahbub-ul-qulub" asarida "Oqsuyak" o'yini ta'rifini beradi. Mahmud Qoshg'ariy devoni XI asrda bitilgan bo'lsa, Alisher Navoiyning "Mahbub-ul-qulub" asari XV asrda yozilgan. Hozirgi paytda ham bolalar "Oqsuyak" o'yinini xuddi o'sha qoida asosida o'ynaydilar.

"Oqsuyak" o'yini nafaqat O'rta Osiyoda, balki yer kurrasining ko'p joylarida keng tarqalgan. Bu o'yinni Yevropaning Skandinaviya mamlakatlari xalqlari etnografiyasiga oid adabiyotlarda o'qish mumkin. Hattoki, ushbu o'yin Avstraliyada ham uchraydi. Aslida, xalq o'yinlari hech qachon chegara bilmaydi. Aksincha, o'yinlar xalqlar, elatlar orasidagi o'zaro do'stlik, qon-qardoshlik rishtalarini mustahkamlash uchun xizmat qiladi.

Buyuk alloma Abu Ali ibn Sino nafaqat mashhur shifokor, faylasuf, shoirgina bo'lib qolmasdan, balki xalq o'yinlariga doir g'oyat rang-barang nodir meros qoldirgan allomadir. U xalq o'yinlari haqida fikr yuritar ekan, ayniqsa badantarbiyaning kishi uchun naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini ham nazariy, ham amaliy jihatdan isbotlab berdi.

- Otda yurish; ikki qo'lni silkitish, bu vaqtda odam oyoq uchida turib, qo'llarini oldga va orqaga cho'zib, tez harakat qiladi.

Olim o'yin turlari va unsurlarini shunchaki sanab o'tmasdan, balki xalq donishmandligi asosida o'zining kuchli bilimi bilan ularni boyitib, inson kamoloti uchun qaysi tarzda foydali ekanligini tushuntiradi.

Ulug' hakim isitmadan holsizlangan, ko'krak va qorin to'sig'i kasalligidan zaiflashgan kishilarga, asab tizimining charchashidan kelib chiqqan parishonxotirlik, ishtaha bo'g'ilishi kabi kasallardan qiynalayotganlarga o'yinlarning quyidagi nozik va yengil turlari:

- *arg‘imchoqlarda uchish;*
- *belanchaklarda til holda o‘tirib yoki yotib uchish;*
- *qayiq yoki kemalarda sayr qilish,*

Kuchliroq o‘yinlardan esa:

- *ot va tuyaga minish,*
- *kajava va aravalarga tushishni tavsiya qiladi.*

Xalq o‘yinlarining kuchli turlariga maydonda bajariladigan quyidagi harakatlarni kiritadi:

- *kishining o‘z soyasi bilan olishishi;*
- *chapak chalish;*
- *sakrash;*
- *nayza uchi bilan sanchish;*
- *katta va kichik kurralar bilan chavgon o‘yini;*
- *koptoklarni o‘ynash;*
- *kurash;*
- *tosh ko‘tarish;*
- *quvlashish;*
- *chopayotgan otni jilovidan tortib to‘xtatish.*

Xalq o‘yinlarining ajoyib bilimdoni bo‘lgan Abu Ali Ibn Sino xalqimizning milliy sport turi bo‘lgan milliy kurashimiz (Buxorochocha va Farg‘onacha kurash turi) haqida ham yetarlicha ma‘lumot qoldirgan.

Kurashning turlari ham bir nechadir, - deydi u. Ulardan biri ikki kurashuvchining har biri o‘z raqibining belbog‘idan ushlab o‘ziga tortadi, shu bilan birga kurashuvchi o‘z raqibidan qutulishning chorasini qiladi. Ikkinchisi esa uni qo‘yib yubormaslikka harakat qiladi. Boshqa turi: ikki kurashuvchidan biri ikkala qo‘li bilan ikkinchisini mahkam quchoqlab o‘ziga tortadi va yerga ag‘daradi, bu vaqtda birinchi kurashuvchining o‘ng qo‘li ostidan o‘tkazilishi kerak, kurashuvchilar goh gavgdalarini tiklab, goh egiladilar.

Kaykovusning “Qobusnoma” asari mo‘‘jaz rivoyatlar, ixcham latifalar, kichik-kichik hikoyatlardan iboratdir. Uning “hunar afzalligi va qadri baland, oliy tabiatli bo‘lish haqida”, “Mazax qilmoq, shatranj va nard o‘ynamoq odobin bayoni zikrida”, “Chahorpoy (ot) sotib olmoqning zikrida”, “Farzand parvarish qilmoq zikrida” degan boblarida xalq o‘yinlariga tegishli bo‘lgan ma‘lumotlar berilgan. Kaykovus “Hunar o‘rganmoqda mehnat qilmoq, badanni yalqovlik, ya‘ni, bekorchilikdin qutqarmoq foydalidir, nedinkim, bekorchilik badanning fasad va bemorligiga sabab bo‘lur. Agar badanga ranj berib, uni o‘zingga qahr bilan mute qilmasang, martabali bo‘la olmassan. Nedinkim, badan rohatni do‘st



tutgoni jihatidan ham o‘z ixtiyori bila senga farmonbardor bo‘lmas. Ul sabab bila kim, badanda asli harakat yo‘qdur. U harakatni armon bilan qilur, o‘z murodi bilan qilmas va to sen buyurmaguncha badanning hech ishga rag‘bati bo‘lmas. Bas, ey farzand, badanni o‘zingga mute qil va uni qahr bila itoatga buyurgil”- deydi.



## **Bolaning barkamol shakllanishida o‘zbek o‘yinlarining ahamiyati**

Bundan shunday ijtimoiy-psixologik xulosa chiqadi: - Har kishi o‘z badanini o‘ziga mute qilsa, o‘zgalarning badanini ham mute qila olar, chunki har kishi o‘z badanini o‘ziga farmonbardor qilsa, fozil va hunar o‘rganmoq bila ikki jahonning salomat va sharofatin hosil qilur.

Kaykovus yoshlarga xilma-xil kasb egallashni, turli xil hunar o‘rganishni tavsiya qiladi, ya’ni o‘sha paytda jismoniy tarbiya harbiy amaliy tavsifga ega bo‘lgani uchun harbiy kishiga harbiy ilmlarni - suvda suzishni, ot minishni, chavgon urishni, buyruq berishni o‘rganishni tavsiya qiladi. O‘sha davr taqozosiga ko‘ra, bunday harbiy ilmlarni o‘rganish zamonning talabi bo‘lgan.

Kaykovus chavgon o‘yining tartibi, qoidalari haqida o‘rinli maslahat beradi. “Ey farzand, agar tomosha uchun bir-ikki marotaba chavgon o‘ynasang ravodur va lekin ko‘p otlig‘ bila chiqib olomon qilmagilkim, sakkiz otlig‘idin ziyoda bo‘lishga hojat yo‘q. Sen maydonning bir boshida turgil, yana bir kishi maydonning oxirida tursin. Olti kishi maydonda to‘p ursin, har vaqt to‘p sening tarafingga kelsa, to‘pni urgil va maydonning oxiriga surgil, ammo olomonning ichiga yetmagil, chavgon o‘yining yo‘li shudir. Shu bilan birga, marraga yetkazishga muvaffaq bo‘l’”.

G‘iyosiddin Abdulfath Umar ibn Ibrohim Hayyomiy-Nishopuriy 1048-1132 yillarda yashab ijod qilgan. Umar Hayyomning “Navro‘znoma” asari uzoq tariximiz, navro‘z bayramining kelib chiqishi, shunga bog‘liq ajdodlarimiz urf-odatlarini, rasm-rusumlari, an‘analari va xalq o‘yinlari haqida batafsil ma’lumot beradi. U “Navro‘z”da o‘tkaziladigan xalq o‘yinlaridan qilichbozlik, tiyrandozlik, chavandozlik kabi odatlar haqida qimmatli ma’lumotlar qoldirgan.

Alisher Navoiy (1441-1501) o‘zining “Hamsa”, “Lison ut-tayr”, “Mahbub ul-qulub” va boshqa qator asarlarida xalq o‘yinlariga mehr bilan qarab, ularga birma-bir ta’rif-tavsif bergan. Qadimdan piyoda yurish, yugurittt, tiyrandozlik, chavandozlik, qilichbozlik, kurash kabi milliy o‘yinlar ko‘pchilik podshohlarni, xususan, lashkarboshilar e’tiborini jalb etgan. Navoiy kuch sinashish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘yin turlariga “Zori” atamasini qo‘llagan. Masalan, Farhod bolaligidan ko‘pgina harbiy mashqlar bilan qiziqqan va shug‘ullangan.

Farhod nishonga aniq tekkizish, ya'ni, tiyrandozlik, nayzabozlik qalqonbozlik kabi mashq turlarida hammani hayratga soldi. Navoiy undagi shiddatkorlik, kuchlilik, aniq mo'ljalga olish, harbiy qurol-aslahalarni ishlatishdagi tadbirkorlik va epchillik xususiyatlarini ajoyib mubolag'alar bilan ifodalangan. U milliy jismoniy mashq turlarini targ'ib etish bilan birga, shug'ullanuvchilarning axloqiy tarbiyasiga ham katta e'tibor bergan.

Husayn Voiz Koshifiy jismoniy madaniyati turlarining benazir bilimdoni

Shunday qilib, Alisher Navoiy xalq jismoniy madaniyati turlarining benazir bilimdoni ekanligining guvohi bo'lamiz. Ayniqsa, uning badantarbiyani "*Ilmi badan*" yoki "*Badan ilmi*" yoxud "*Ko'ngil tarbiyasi*" milliy sport turlarini ifodalash uchun "*Zo'ri*", "*Dilovarlig*", "*Go'y*", "*Silahshurlik*" atamalarini qo'llashi jismoniy tarbiya fani uchun ochilgan yorqin bir sahifalardir. Shuningdek, u "*Shatranj*", "*Tiyrandozlik*", "*Chavandozlik*", "*Nayzabozlik*", "*Chavgon*", "*Qovoq*", "*Kurash*", "*Qilichbozlik*" kabi qadimiy xalq o'yinlarini o'zining lirik va epik asarlarida yuksak mahorat bilan tasvirlagan. Ushbu ilmiy meros xalqimiz milliy tarixida milliy sport o'yinlariga qadimda katta ahamiyat berilganligini ko'rsatadi.

Husayn Voiz Koshifiy xalq o'yinlarining o'n beshga yaqin turi haqida ma'lumot qoldirgan. Uning "*Futuvvatnoma-i Sultoniya yoxud javonmardlik tariqati*" risolasida o'z zamonidagi tomosha ko'rsatuvchi pahlavonlar, kurash tushuvchilar, tosh otarlar, nova tortuvchilar, hammollar, dorbozlar, kuchni namoyish qiluvchilar, tomosha ko'rsatuvchi o'yin ahli (kosa o'ynovchilar, qo'g'irchoqbozlar) va soqqabozlar, kabza ma'nosida va kabza turlari (qilich, qalqon), gurzi urishi, kamon yoyi, to'qmoq (yog'och bolta) pichoq, boltacha (qassoblik pichog'i) va bolta haqida batafsil to'xtaladi.

Husayn Koshifiy tomosha ko'rsatuvchi pahlavonlarni sakkiz toifaga ajratadi: ya'ni, kurash tushuvchilar, tosh o'ynovchilar, loy tashuvchilar, zambil ko'taruvchilar, dorbozlar, gurzi ko'taruvchilar va zo'rlar. U kurash ommabop milliy sport turi bo'lib, barcha uchun manzurligini bu ish bilan shug'ullanuvchi kishilar har qanday vaziyatda to'g'rilik va poklik, adolat qonuniyati bilan yashashi kerakligini uqtiradi.

Koshifiy - "*toshotarlar*", pok va taqvodor kishilardir, ularning vazifasi tosh bilan dushmanga aniq zarba yetkazishdir, - deydi. Ularning odobi oltita, deb aytadi:

*I. butun choralarni ishga solib, kuch va malaka to'plash va buni dushmanga qarshi sarflay bilish;*

2. toshga qo'l tekkizishdan oldin o'tgan azizlar va pirlarni esga olish;

3. qo'lni toshga urgandan keyin jasorat va mardlik ko'rsatishga intilish;

4. majlis ahlidan madad va himmat tilash;

5. ko'z bilan tilni va qo'l bilan ko'ngilni noshoista ishlar va narsalardan saqlash;

6. ma'raka, hunardan forig' bo'lgandan keyin takbir va salovat aytish.

Asarda dorbozlar tashqi ko'rinishdan o'yin, tomosha ahlidan bo'lsalarda, ammo ishlarining asosi jur'at va quvvat bo'lganidan, ular ahli zo'r (pahlavon) jumlasiga kiritiladi. Bu manzara o'sha davr sportchilarining individual-psixologik xususiyatlarini keng tasavvur etishga imkon yaratadi. Shuni e'tiqod bilan anglab yetish kerakki, - zo'rgarlik (kuch-quvvatni namoyon etish)ning haqiqati nafs dushmanligini poymol etishdir, bo'lmasa ko'p hayvon va parrandalarning quvvati odamzodnikidan ortiq. Pir va ustozdan ta'lim, duo olmay qilich taqish noravodir-deydi. Qalqon sipohiylarning qal'asi va jangchilarning himoyachisidir, - deydi Husayn Koshifiy. Qalqonning 4 ta turi ta'riflanadi, ya'ni:

1. xazr (to'sish) qalqoni;
2. qadr qalqoni;
3. sabr qalqoni;
4. hilm (halimlik) qalqoni.

Koshifiy kamon otish haqida gapirib, kamon kabzasining o'n ikkita odobini ta'riflaydi. Kamon kabzasini tutishning eng ko'p tarqalgan 4 xili mavjud bo'lib, ular:

1. avval pichoq kabzasi;
2. ov kamoni kabzasi;
3. qarchig'ay changali (uni "xandon" ham deydilar);
4. mudavvar (chambarak).

Yoy tortishning ikki xili bor, binobarin, birinchisi mo'ylovsimon tortish; ikkinchisi surmakash (surma tortishga o'xshab) tortishdir. Amir Temur shon-shuhrat qozonishining siri, mohir sarkardaligi, odil va zukkolik bilan ish yuritishi, donishmandligi va shu bilan bir qatorda yoshlik paytidanoq kurash, chavandozlik, nayzabozlik, qalqonbozlik, tiyrandozlik, qilichbozlik va ov qilish ilmini mukammal egallaganligidir. Bu esa uning bolaligidanoq ko'plab harbiy amaliy tavsifga ega bo'lgan xalq o'yinlarini o'ynaganligidan dalolat beradi. Chunki bolalikda

o‘ynalgan o‘yinlar uni hayotga janglarda, uzoq safarlarga tayyorlashda o‘ziga xos maktab vazifasini o‘tagan.

“Amir Temur 14 yoshga kelib erdi, xon so‘rdikim, Turug‘ otliq kimdir” anda birov turib aytdi: “Bu Tarag‘ay Bahodir o‘g‘lidir. Amir Temur xonning nazarida yosh bola ko‘rinib, buyurdikim: “Tarag‘ay Bahodirning o‘g‘li jangga bormasin”. Anda Amir Temur o‘q-yoy olib, toblab yubordi. Otilib ellik qadam yerga borib tushdi. Mirzo Sayfiddin anda taqlid qilib, ani o‘rniga yuborilmadi. Andin keyin Sohirqiron dasturi Chig‘atoy birla jonga kelib, tizzasin bukib, xonga ta‘zim qildi. Aytdi: “Iltimos qilib sizdin xohlayurmen, davlat xumoyuningizda ushbu qo‘shin men birla talosh qilsalar. Anda uch kun talosh qildilar. Barchalari aqalli aning qo‘lidan yarog‘in tortib ololmadilar. Bu jur‘atni Sohirqirondan ko‘ra ba‘zilari esxurun zo‘r qildilar, kuchlari yetmadi, tortib ololmadilar”.

Amir Temur shiddatkor nayzaboz bo‘lganligi, “Temurnoma”da shunday yozilgan: - “Fil hol qilich arslon aslaha-yarog‘larini, nayzasini qo‘liga olib, Amir ham musallig‘ bo‘lib, otlarga minib, ikki tarafdin shovqin solib, birdan nayzabozlik qilib, Amirga nayza soldi. Amir chap berdi, nayza solib erdi, orqasidin yana soldi hozir bo‘l, deb Amir otin yoliga yopushdi. Nayza borib toshga tegib, ikki qarich botti, yana tortib olib nayza soldi. Amir nayzani o‘tkazib, qilich soldi”.

Sharofiddin Ali Yazdiy qayd etishicha, Amir Temurning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri davlat, mamlakat va fuqaroga g‘amxo‘rlik edi. Uning qoidasi - “*Rosti-rusti*” edi. Haqiqat-sihat salomatlik, haqiqat-tartib, haqiqat-adolat demakdir, deb tushuntirar edi. U insonparvarlik va mardlikni Olloh ham, xalq ham ulug‘laydi, degan gapni ko‘p takrorlagan.

Yunon tarixchilari qoldirgan ma‘lumotlarga qaraganda, bir vaqtlar O‘rta Osiyo hududlarida yashagan qadimgi qabilalar mushtlashishni yaxshi biladigan mohir jangchilar, ya‘ni, harbiy salohiyatga ega bo‘lgan kishilar bo‘lgani qayd qilinadi. O‘zbek xalq o‘yinlari ijtimoiy ehtiyoj tufayli qadimda vujudga kelgan. O‘zbek xalq o‘yinlari mazmunan g‘oyatda boy, shaklan xilma-xil bo‘lib, muayyan ijtimoiy - tarixiy tavsifga egadir.

Tadqiqotchi R.Yo‘ldosheva qayd qilganidek, - “O‘yinlar xalq tantanalari va tomoshalarining eng yaxshi an‘analarini o‘zida jamladi, betakror o‘ziga xosligi va psixologik xususiyatlari bilan milliy madaniyatni nihoyatda boyitdi, avlodlar vorisligini, xalq an‘analarini o‘zida mujassamlashtirdi”.

O‘yinlarning ibtidoiy jamoa davrida mavjudligi tan olingan bo‘lsada, biroq, xalq o‘yinlarining paydo bo‘lishi va uning taraqqiyoti masalalari

hanuzgacha to'laqonli tadqiq qilinmagan. Shunga qaramasdan, mavjud manbalarga tayangan holda, xalq o'yinlarining ilk paydo bo'lishi tarixi haqida mantiqiy fikr yuritish va ular to'g'risida muayyan tasavvur hosil qilish mumkin.

Ba'zi manbalarda arxeolog olimlar O'rta Osiyoda ibtidoiy odamlar Afrika qit'asidan Sharqiy Osiyo orqali kelgan, degan fikrni bildirgan bo'lsalar (D.A.Ranov), boshqa bir guruh olimlar O'rta Osiyoni insoniyat beshigi deb hisoblaydilar. O'zbekiston hududida eng qadimgi odamlar manzilgohi Farg'ona vodiysidagi Seleng'ur g'or makoni bo'lib, bu *ilk paleolit* davriga mansubdir.

O'rta tosh asri - ibtidoiy odamlar tasavvurlari va e'tiqodlarida keskin o'zgarish yuz bergan davr bo'lib hisoblanadi. Bu jarayonni O'rta Osiyoning eng qadimgi rangtasvirlaridan bo'lmish Ko'hitangdagi Zarautsoy suratlarida kuzatish mumkin. Bu lavhalarda ov manzarasi, hayvonot olami va ibtidoiy davr odamlari tasviri o'z ifodasini topgan. Ba'zi bir olimlarning (jumladan A.A.Formozov) ta'kidlashicha, bu lavhalarda ov marosimi aks ettirilgan.

"Zarautsoy-98" xalqaro simfoziumi qatnashchilarining xulosasiga ko'ra, Zarautkamar ilk ibtidoiy maktablardan biri deb tan olingan. Chunki, ajdodlarimiz qoldirgan qadimiy suratlar va yozuvlar bu haqda guvohlik beradi. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, ibtidoiy odamlar hayotida *ovchilik o'yinlari* salmoqli o'rin tutgan. Ba'zi manbalarda o'yinlar ovdan oldin o'tkazilishi yozilgan bo'lsa, boshqalarida ovdan so'nggi o'yinlar haqida fikrlar bayon qilingan.

Agar, bu ma'lumotlarni chuqurroq psixologik tahlil qiladigan bo'lsak, unda ovchilik o'yinlari ovdan oldin ham, ovdan keyin ham o'tkazilgan, deyish mumkin. Ovdan oldingi o'yinlar ov oldi mashqlari (ovga tayyorgarlikni tekshirish, ovga psixologik va jismoniy shaylanish) vazifasini o'tagan hamda jiddiy, o'ziga xos kichik marosim shaklida uyushtirilgan. Bu o'yin jarayonida ibtidoiy odamlar o'ljaga yaqinlashishni, so'ngra uni osongina qo'lga tushirishni o'rganishgan, buning uchun niqob kiyib, hayvon qiyofasiga kirishgan. Uning yurish-turishlari, hatti-harakatlari mashq qilingan, ularning tovush chiqarishlari o'rganilgan.

Aynan ana shunday o'yinlar jarayonida yoshlarni ham ov qilittga o'rgatishgan. Shu bois, u o'ziga xos maktab vazifasini o'tab, ovchilik mahoratini o'stirishga yordam bergan bo'lsa, ikkinchi tomondan ularda taqlid qilish san'atini va ushbu faoliyatga nisbatan barqaror motivatsiyani shakllantirgan hamda rivojlantirgan. Ovdan so'nggi o'yinlar - ov muvaffaqiyatli tugagandan keyin uyushtirilgan, deb taxmin qilish mumkin.

Mashhur qomusiy olim Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asarida ovchilik bilan bog'liq bo'lgan qo'shiqlar o'ziga xos o'rin tutgan. Ularda ov qilishning dastlabki namunalari, it va qush yordamida o'q yoy bilan ov qilish tajribalari madh etilgan. Mamlakatimiz hududidagi eng qadimgi davrlar haqida ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lib, ularning natijalari xalq o'yinlarining paydo bo'lishi tarixi hamda ijtimoiy-psixologik jihatlari haqida ayrim xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Tarixiy, arxeologik va etnografik manbalarda xalq o'yinlarining kelib chiqishi hamda rivojlanishiga doir qiziqarli ma'lumotlarni uchratamiz. Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit turk", Abu Ali Ibn Sinoning "Tib qonunlari", Kaykovusning "Qobusnoma", Umar Hayyomning "Navro'znoma", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Husayn Voiz Koshifiyning "Futuvvatnomai Sultoniy yoxud javonmardlik tariqati", Alisher Navoiyning "Hamsa", "Lisonut-tayr", "Mahbub ul-qulub", Zayniddin Vosifiyning "Nodir voqealar", Amir Temurning "Temur tuzuklari", "Temurnoma", Zahiriddin Boburning "Boburnoma" va boshqalar, shuningdek, Oybekning "Alisher Navoiy" tarixiy romani, "Bolalik qissasi", Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar", Mirmuhsinning "Temurmalik", Radiy Fittning "Jaloliddin Rumi" va shu kabi tarixiy-ilmiy, badiiy asarlarda milliy sport o'yinlarining paydo bo'lish tarixi va rivoji to'g'risida asosli ilmiy ma'lumotlar keltirilgan.

Undan tashqari, o'zbek xalq o'yinlarini izlash, tadqiq qilish va xalq orasida targ'ib qilishda shu sohaning olimlari T.S.Usmonxo'jayev, A.N.Normurodov, I.I.Margunova, S.Q.Qurbonov o'zlarining munosib ulushlarini qo'shganlar.

Grekl tarixchisi Gerodot xorazmiylar bilan yonma-yon yashagan saklar qabilasidagi mohir merganlar psixologiyasini bunday aks ettirgan: - "Saklar dunyodagi merganlar orasida o'qni zoye ketkazmaydigan juda mohir merganlar sifatida shuhrat qozongan edi".

Xalqimizning ajoyib dostoni "Alpomish"da tirandozlik haqida so'z boradi. Chunonchi, - "Hakimbek 7 yoshga kirgan edi. Oltinboy bobosidan qolgan 14 botmon birinchdan bo'lgan parli yoyi bor edi. Ana shu yetti yashar bola Hakimbek 14 botmon yoyini qo'lga ushlab, ko'tarib tortdi, tortib qo'yib yubordi. Yoyning o'qi yashinday bo'lib ketdi. Askar tog'ining katta cho'qqisini yulib o'tdi...". Dostonning asosiy qahramonlaridan bo'lgan Barchin erga tegish uchun 4 ta shart qo'yadi. Shartlarning ikkitasi o'q-yoy otish bilan bog'liq. Masalan, ikkinchi shart: yoy tortishsa yoy sinmay qolganga men tegaman, shu yoy andoz polvonga

- deydi. Uchinchi shart: ming qadamdan tanga pulni urganga, men tegaman shul qarchigʻay merganga.

Zayniddin Vosifiyning hikoya qilishicha, - “Navroʻz Ahmad kamandorlikda shu darajaga yetdiki, birorta pahlavon uningdek kamon tortolmasdi. Uning yoy-oʻqi dushman koʻziga borib yetmay, tinchimasdi; kamon tortgan vaqtida falak qavs chillaxonasidan turib tahsinga ogʻiz ochardi. Oʻqi tortilgan vaqtda burchaklardan “Ofarin!” ovozi koʻtarilardi.

Zahiriddin Boburning ijodiy merosi “Boburnoma”da tiyrandozlikka doir voqealar berilgan: - “oʻqni oʻrta chogʻliq otar edi, bisyor zarb mushti bor edi, aning mushtindin yiqilmagan yoʻqtur Hasan Yaqubbek mardona kishi edi. Oʻqni yaxshi otar edi yana bir Fariddin Husayn Mirzo edi. Yoyni kuchluk tortib, oʻqi qirq botmon ekandir”. “Yana Islom Barlos edi oʻttiz-qirq botmon yoy kuch birla otib, taxtadin oʻtkazur edi. Qaboq maydonida maydon boshidan chopib, yoyni tushirib, koʻrib, otib qaboqni urar edi.

Xolchayontepa va Bolaliktepadagi arxeologik qazilmalar paytida topilgan kamon oʻqlarining uchlari ajdodlarimizning azalda tiyrandozlik bilan mashhur boʻlganliklariga dalildir. Xolchayon otlari yengil qurollangan suvoriylar uchun moʻljallangan boʻlib, suvoriylar maxsus kiyimda yurishgan va oʻq-yoy bilan qurollanishgan. Topilgan suvoriylar haykalchalari shuni koʻrsatadiki, ular otda yelib borayotib, nishonga aniq urganlar. Termiz yaqinidagi Ayritom, Xorazmdagi Tuproqqalʼa va boshqa joylardan topilgan buyumlar, suyak, tosh, sopolga tushirilgan rasmlarda qadimgi madaniyat, kurash, chavandozlik, tiyrandozlik, ov jarayonlari aks ettirilgan. Bu davrda yashagan xalqlar oʻrtasida jangovarlikni oshirish, oʻz hududlarida osoyishtalikni taʼminlash va oʻz vatanini himoya qilish, xalq farovonligini oshirishga xizmat qiladigan madaniy marosimlar, rasm-rusumlar, toʻylar va xalq sayllarida kamondan oʻq otish, qilichbozlik, qalqonbozlik, nayzabozlik, kurash, ot oʻyinlari tantanali ravishda oʻtkazilgan.

Xalqimiz orasida ot bilan bogʻliq “Koʻpkari uloq”, “Poyga”, “Qiz quvmoq”, “Agʻdarish”, “Ot ustida qilichbozlik”, “Qovoq oʻyini”, “Chavgon” kabi xalq oʻyinlari koʻplab oʻtkazilgan. Abulqosim Firdavsiy “Shohnoma” asarida “Uloq”soʻzini koʻp ishlatgan. Al-Maqsudiy qurbon hayiti haqida yozganda: - “Bayram kunlari Jurjonlik bilan Bedrabortliklar oʻrtasida tuya kallasini qoʻlga kiritish uchun tortishuv boʻladi”, singari maʼlumotlar qoldirgan.

Taniqli yozuvchi Oybek “Bolalik” qissasida xalq milliy sport turlaridan boʻlgan uloq oʻyini juda ustalik bilan bayon qiladi. Zero, uloq xalqimizning qadimiy oʻyini. Surxondaryo hududida qadimda ham xalq



o‘yinlarining muayyan jismoniy, psixologik va fiziologik tizimi mavjud bo‘lgan.

Taniqli qadimshunos olim G.Pugachenkova shaxmat tarixi haqida shunday yozadi: - “fil suyagidan yasalgan, balandligi va eni 2 sm bo‘lgan ikkita shaxmat donasining topilganligi katta kashfiyotdir. Ulardan biri fil, ikkinchisi esa ho‘kiz timsolidir. Ularni eramizdan oldingi I-II asrlarga, ya’ni Kushon imperiyasi davriga mansub, deyish mumkin. Dalvarzintepadan topilgan shaxmat donachalari chaturang o‘yining shatranj shakliga oid bo‘lishi kerak.

Yusuf Xos Hojib begona davlatga boradigan elchining o‘ziga xos bo‘lgan fazilatlarini: bilimdonlik, gapga chechanlik va tadbirkorlikdir - deydi”. Shaxmat va nard o‘yinlari elchining fazilatlarini shu darajada aks ettirishi lozimki, toki harflari undan ustun bo‘lmasin”.

Erkin Vohidovning “Buyuk hayot tongi” dostonida shaxmat musobaqasi tasviri orqali qahramonlarning ruhiy holati ochib berilgan. Unda “kisht”, “Ruh”, “Shohga hujum” kabi milliy sport atamalari qahramonlarning hayotga munosabatini, psixologiyasini ochib ko‘rsatgan, ya’ni, chiroyli so‘z o‘yinlari amalga oshirilgan.

Mashhur hakim Abu Ali Ibn Sino “Tib qonunlari” kitobida kurashning ikki turini tavsiflab, ularning mohiyati va qo‘llanishi qoidalarini mufassal yozib qoldirgan. Uning ta’rificha, kurashning bir turida belidan ushlashga ruxsat berilib, oyoq ishlatmasdan kurashish bo‘lsa, ikkinchisi, qaysi joydan ushlab olsa, shu yerdan mahkam tutish va oyoqlar yordamida harakat qilishdir. Ammo kurashning ikkala turida ham qo‘llar bilan oyoqdan olish qat’iyan man qilingan.

Hozirgi paytda bu xil musobaqalarni o‘zbeklar “*Kurash*”, tojiklar “*Gushtingari*”, qozoq va qirg‘izlar “*Kures*”, turkmanlar “*Guresh*” deb ataydilar. Navoiy, Bobur, Vosifiy davrida *kushtigir*, *gushtigir* iboralari bilan bir vaqtda “*Kurash*” atamasi ham faol qo‘llangan. Shuningdek, “*Miyongir*”, “*Miyongirlik*” (kurash, kurashish, olishish) va “*Buqa*” (kurashchi, polvon) atamalari ham o‘z davrining mahsuli hisoblangan.

“XVI asr Xorazm yodnomalari”da - bir pahlavon uch yuz oltmish xil turli kurash ilmini bilur, - deyiladi. Husayn Voiz Koshifiy ham kurashning ikki turi haqida to‘xtaladi: -ikki xil turi bor, birinchisi - “*Qabz*”, ya’ni, qo‘l bilan ushlash, ikkinchisi, “*Istiror*”, ya’ni, ixtiyorsiz holda olishish. U kurash tushish san’at ekanligini e’tirof etib, kurash tushish san’atning ilmiki, bu ilmning mashhur usullari juda ko‘p, ular uch yuz tugun va bandlar (usul va tadbirlar) dan iboratdir va ularning har biri tag‘in bir

necha usulga ajraladi. Agar bularning barchasi yig'lsa, bir ming sakkiz yuz usul kelib chiqadi.

Respublikamiz polvonlari azaldan qo'tttni mamlakat polvonlari bilan bellashib, xalqimizning sharafini himoya qilganlar. "Bundan ancha ilgari, 1895 yili mashhur nemis polvoni Rippel Toshkentga kelib sirkda o'z kuchi, imkoniyatlari bilan tomoshabinlarni qoyil qoldirgan. Og'irligi sakkiz yarim pud (136 kg) bo'lgan cho'yanni ikki qo'li bilan, 16 pudli cho'yanni kifti bilan ko'tarib tomosha ko'rsatgan.

O'sha vaqtlarda Toshkentning Beshyog'och dahasi, Chaqar mahallasida yashagan Ahmad polvon Tolibboy o'g'lining O'rta Osiyoda kurashib, yiqitmagan polvoni qolmagan edi. Mehmon Ahmad polvonning dovrug'ini eshitib qolib u bilan kurashmoqqa jazm qilibdi. O'sha kuni, ya'ni 1895 yil 25 iyunda sirk binosiga odam sig'may ketgan ekan.

Shunday qilib, tabiat va hayot haqida yuzaga kelgan ibtidoiy tushuncha va e'tiqodlar animistik hamda totemistik tasavvurlar, qarashlar bilan vujudga kelgan. O'yinlarning tabiiy - tarixiy paydo bo'lish asosi va taraqqiyoti mehnat jarayoni bilan bog'liqligini ko'rish mumkin. O'yinning ilk boshlang'ich ko'rinishi ibtidoiy jamiyatda sinkretik (qorishiq) san'at sanalib, insonning mehnat va kundalik faoliyatini ifodalagan. Ularning qaysidir turi bilan shug'ullanish insonlarning harakter sifatlari, temperament xususiyatlari orqali aks etgan. Bu o'yinlar jismoniy faoliyatning mustaqil turi sifatida muayyan darajada jamiyatning sog'lom ijtimoiy hayot tarzini belgilagan desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Ko'pgina mamlakatlar olim va pedagoglari o'yinlar mohiyatini, ularning kelib chiqishi, taraqqiyoti va ahamiyatini psixologik hamda ijtimoiy-psixologik jihatdan o'rganmoqdalar. Shunga ko'ra, o'yinlarning mohiyati va kelib chiqishini ifodalovchi turli hil nazariyalar, fikr va qarashlar ishlab chiqilgan.

Kishilik taraqqiyoti tarixi (filogenez)da mehnat o'yinlari katta o'rin tutgan, ammo alohida olingan inson hayotida (ontogenezda) o'yin, uning kelajagidagi mehnat faoliyatidan oldin turadi. Masalan, bola *rolli o'yinlar* o'ynab rivojlanadi, undagi shartli reflekslar birinchi va ikkinchi signallar tizimi, organizmi doimiy ravishda atrof-muhit bilan o'zaro faoliyat va tarbiyaning hal qiluvchi ta'siri orqali tashkil etilgan pedagogik jarayon natijasida shakllanadi. Shaxsning shakllanishi va rivojlanish jarayoni - uning ijtimoiy tajribani o'zlashtirish jarayoni hamdir.

Tarbiya oldindan ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, bolaning ulg'ayishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun o'yin - bu ijodiy faollikni improvizatsion holatda erkin namoyon qilishdir.

Xalq o‘yinlarining dastlabki namunalari insoniyatning ongi, tafakkuri rivoji bilan bog‘liq bo‘lgan. Ularning paydo bo‘lishida o‘sha davr shart-sharoitlari, odamlarning ov va turmush tajribalari, dunyoqarashi, urf-odat va marosimlari alohida ahamiyatga molik bo‘lgan.

Eng qadimiy xalq o‘yinlari namunalari yozuv yuzaga kelmasdan ancha ilgari paydo bo‘lgan. Shu sababdan, ayrim o‘yinlarda so‘z yetakchi bo‘lsa, boshqalarida o‘yinning ayrim unsurlari ustun turadi. Ana shu tariqa mehnat va jismoniy mashqlarning yuzaga kelishi ijtimoiy taraqqiyot tufayli turli o‘yinlarning kelib chiqishiga sabab bo‘ldi.



## Xulosa

Shunday qilib, Sharq allomalari, ma'naviy xazinamiz egalari bo'lmish zukko shaxslar milliy sport o'yinlarning yosh avlod tarbiyasida benihoya katta ahamiyatga ega ekanligini, milliy sport o'yinlarining ijtimoiy- psixologik ahamiyatini o'z ilmiy asarlarida qayta-qayta uqtirib o'tganlar.

Milliy sport o'yinlari xalqimiz madaniyati va etnopsixologiyasini yorqin namoyon etuvchi milliy qadriyatlar sifatida alohida, muhim ahamiyatga ega. Ushbu milliy an'ana va qadriyatlar namunasidan mahallalarda yoshlar bilan milliy sport o'yinlarini tashkil etish va shu orqali ularni ma'naviyatli, jismonan baquvvat hamda sog'lom etish tarbiyalash soha mutaxassislarining asosiy maqsadi bo'lib qoladi. An'ana-shaxslararo munosabatlarni tashkil etishning, jamoa ijodkorligining mahsuli, shu bilan birga, o'yinlarni jamoa holda o'ynashni saqlab qolishning ham o'ziga xos shakli hisoblanadi. Xalqning asrlar davomida shakllangan badiiy zavqi, estetik didi bor ekan, o'yin hamisha shu xalqona estetik tamoyilga amal qilib yashaydi. Bu o'yin uchun ob'ektiv qonuniyatdir.

Keyingi davrlarda yaratilgan o'yinlarda garchi an'anaviy xalq o'yinlariga xos epchillikka, mavzularga asosiy urg'u berilsada, biroq, bu endi an'anaviy xalq o'yinlaridagidek g'ayritabiiylik asosida emas, balki, ob'ektivlikka asoslangan holda ifodalanadigan bo'ldi. An'anaviy xalq o'yinlarining ideal qahramonlari g'ayritabiiy kuchlar madadkorligida harakat qilib g'alaba qozonsa, yangi, zamonaviy o'yinlarning qahramonlari mavjud tarixiy shaxslar bo'lib, ular hozirgi voqelikka suyanib, harakat qiladi va ko'zlangan maqsadlarga erishadi.

## **ASOSIY ADABIYOTLAR**

### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

1. SH.M.Mirziyoyev “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi.-T.:“O‘zbekiston”, 2016-56 b.

### **Normativ-huquqiy hujjatlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonuni 2015

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-son Farmoni.

### **Qo‘shimcha adabiyotlar**

1. Abdullayev A, Xonkeldiyev Sh, Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. T. 2005 y
2. Axmedov F.Q. Milliy an’analar asosida sport bayramlarini tashkil qilish va o‘tkazish usullari. Jizzax-2005.
3. Atoyev A.Q. Farzandingiz barkamol bo‘lsin. T.: 1990.
4. Maxkamov K.M., Boshlang‘ich sinflarda jismoniy tarbiya T.: 1988.
5. Usmonxo‘jayev T.S., Meliyev H., Milliy harakatli o‘yinlar.T.: “O‘qituvchi” 2000.
6. Usmonxo‘jayev T.S, Xo‘jayev F, 1001 o‘yin, T.: Ibn Sino, 1990.
7. Xalq milliy o‘yinlariga bag‘ishlangan Respublika ilmiy amaliy anjumanlari materiallari (Jizzax-1991, 1999, Termiz-1998, 2005 va b.q).

## MUNDARIJA

<b>Kirish</b> .....	3-bet
O‘zbek o‘yinlarimizning tiklanishi-milliy qadriyatimizning tiklanishi.....	4-bet
O‘zbek xalq o‘yinlari haqida allomalarning fikrlari.....	6-bet
Bolaning barkamol shakllanishida xalq o‘yinlarining ahamiyati.....	10-bet
Xulosa.....	20-bet
Adabiyotlar ruyxati.....	21-bet

N.Xalmatova

**O‘ZBEK XALQ O‘YINLARINING  
QISQACHA MAZMUNI**

Bosishga 10.04.2021 ruxsat etildi

Bichimi 60x84 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>, « Times New Roman» garniturasida, Ofset qog‘ozi

Bosma tabog‘i 1,5. Adadi 40 nusxa. Buyurtma № 111

«UMID DESIGN» nashriyoti

«UMID DESIGN» XK bosmaxonasida chop etildi.

O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri

Navoiy ko‘chasi 22-uy